

GAPIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Mamatkulova Fotima Ashirkulovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Ingliz tili nazariy aspektlar №3,

kafedrası katta o'qituvchisi

Karimbayeva Mardona Ravshanbekovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyoti Ingliz tili 3- fakultet

1- bosqich 2402-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilida gapirish qobiliyatini shakllantirish uchun muhim metodlar ko'rib chiqiladi. Turli xil muloqotlar va interaktiv mashg'ulotlar asosan ro'lli o'yinlar va muzokalar yordamida talabalar o'z nutqini rivojlantirishlari ehtimoli katta. Bu yondashuvlar talabalarning o'z qarashlarini mustaqil bildirish olish va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarga real hayotdagi voqea-hodisalarga o'xshash topshiriqlar berish orqali, muloqot qilish imkoniyati taqdim etiladigan metodlar, gapirish ko'nikmasini samarali qilishlari mumkin. Bunda doimiy mashqlar va amaliyotlarning ahamiyati katta.

Kalit so'zlar: gapirish qobiliyati, interaktiv mashg'ulotlar, rolly o'yinlar, tez aytishlar, kinolar, multfilmlar, sun'iy intellekt, lug'at boyligi, axborot-texnologiyalar

MODERN METHODS FOR DEVELOPING SPEAKING SKILLS

Abstract: This article explores effective methods for developing speaking skills in English. Various types of communication and interactive activities, especially role-plays and discussions, significantly contribute to the development of students' speech. These approaches play an important role in enabling students to express their opinions independently and increasing their self-confidence. Methods that simulate real-life situations and provide opportunities for communication can help improve speaking skills effectively. Regular practice and hands-on activities are of great importance in this process.

Keywords: speaking ability, interactive activities, role plays, tongue twisters, movies and cartoons, artificial intelligence, vocabulary richness, information technologies.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методы развития навыков устной речи на английском языке. Различные виды общения и интерактивные занятия, особенно ролевые игры и дискуссии, значительно способствуют развитию речевых навыков студентов. Эти подходы играют важную роль в формировании у студентов способности самостоятельно выражать свои мысли и повышении уверенности в себе. Методы, приближенные к реальным жизненным ситуациям и предоставляющие возможность для общения, могут эффективно развивать навыки устной речи. В этом процессе важную роль играют регулярные упражнения и практические занятия.

Ключевые слова: навыки говорения, интерактивные занятия, ролевые игры, скороговорки, фильмы и мультфильмы, искусственный интеллект, богатство словарного запаса, информационные технологии.

Bugungi globallashib borayotgan davrda o'rganuvchilar orasida muloqot shakllantirish uchun til bilish ko'nikmas, ayniqsa, gapirish qobiliyati katta ahamiyatga ega. So'zlashish tilni o'rganish va to'g'ri tushinish bilan bir qatorda fikrlarni erkin ifoda eta olish va tinglovchiga to'g'ri yetkazib berish uchun ham muhimdir. Lekin til o'rganuvchilarning aksariyati gapirish (speaking) ga kelganda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu maqolada shu kabi muammolarga yangicha metodlar orqali ularni bartaraf etish usullarini keltirib o'taman.

Ayni damda sun'iy intellekt barcha jabhada insonlarga ko'maklashmoqda. U bir qator funksiyalarga ega bo'lib, talabalarining gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali yordam berib kelmoqda. Aynan o'zimdagi misol qilib keltirishim mumkinki, har kuni chat gpt bilan 30-40 daqiqa ingliz tilida fikr almashish orqali o'z darajamni ancha ko'tara oldim. Bular quyidagilardan iborat.

Sun'iy intellekt hech bir xatoyingizni o'tkazib yubormaydi hatto mayda detallargacha. U o'rganuvchilarga artikllarni so'zlash davomida ishlatishdan tortib murakkab gap tuzilmalarigacha eng yaxshi shakllarini taqdim qiladi. Bundan tashqari, so'zlarning talaffuzlarini ham (native speaker) ingliz tili ona tili bo'lgan odamlarniki kabi chiroyli va ravon qilishga yordam beradi.

Xudoyorova Gulasal Ilhomiddin qizining "Ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish usullari" nomli maqolasida gapirish ko'nikmasiga to'sqinlik qiladigan yettita asosiy sababni sanab o'tgan

Ular quyidagilardan iborat;

1. Yoshlarda dunyoqarashning torligi-turli xil mavzular, meditsina, ta'lim iqtisodiyot, fazo, atrof-muhit, axborot-texnologiyalari kabi turli sohalarga oid bilimga ega emaslik
2. Ingliz tili muhitining mavjud emasligi,
3. Yetarlicha lug'at boyligiga ega emaslik,
4. Yod olib gapirib berishga o'rganib qolish,
5. Gapirish davomida o'ziga bo'lgan ishonch yo'qligi,
6. Tartibsiz gapirish (berilgan fikrlarda izchillik yo'qligi),
7. Omma oldida gapirishga noqulay bo'lish,

Aynan shu muammolarni yechish maqsadida men 20 ta talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazdim. Ularga yuqoridagi muammolarning qaysi biri ularda mavjudligi haqida so'radim. Natijalarga ko'ra 40% - yetarlicha lug'at boyligiga ega emaslikni, 30% - turli mavzularga oid bilimlarning yetishmasligini, 15% - ingliz tili muhitining mavjud emasligini 10% - omma oldida gapirishga noqulay bo'lish, 5% - gapirish davomida o'ziga bo'lgan ishon yo'qligini tanlashdi.

Bularga yechim sifatida men gapirish ko'nikmasini oshirib, xuddi inglizlardek gapir oladigan darajaga olib chiqadigan xaritani ishlab chiqdim. Har bir til o'rganuvchi aktiv amliyotda bo'lish uchun passiv jarayondan o'tishi kerak. Eng avvalo talabalarga o'zlarini qiziqtirgan mavzularda kinolar va multfilmlar ko'rishni tavsiya qilaman. Misol uchun, "Vapirlar kundaligi" "Emma" "Boshqotirma 1 va 2" "Matilda" "Rosehill" kabilarni ingliz tilida ko'rishni

maslahat beraman., chunki ularni subtitrl bilan ko'rish orqali ham talaffuzni yaxshilashga ham ingliz muhitini his qilishga ko'maklashadi. Bundan tashqari quyidagi tez aytishlarni har kuni 10-15 marta takrorlansa nutqni ravon qiladi va nutq davomida tutilishlar kamayishiga yordam beradi.

- 1) she sells seashells by the seashore
- 2) peter piper picked a peck of picked peppers
- 3) red lorry yellow lorry
- 4) fuzzy wuzzy was a bear

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy yondashuvlar orqali sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Talabalarning gapirishdagi muammolarini aniqlab, ularga mos metodlarni qo'llash, ayniqsa, sun'iy intellektdan foydalanish, real hayotga yaqin topshiriqlar, kinolar va tez aytishlar orqali mashq qilish samarali natijalar beradi. Gapirishni rivojlantirish uchun muntazam amaliy mashg'ulotlar, o'ziga ishonchni oshirish va til muhitini yaratish zarur. Har bir o'rganuvchi o'ziga mos va qiziqarli uslublarni tanlagan holda, muntazam shug'ullansa, qisqa fursatda erkin va ravon so'zlasha oladigan darajaga erisha oladi. Shu bois, o'qituvchilar va talabalar zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri va maqsadli foydalanish orqali til o'rganish jarayonini samarali tashkil etishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mukaramxodjayeva T.Y "Semantic relationships of phraseological units in English: polysemy and homonymy" So'z san'ati xalqaro jurnali, 7 jild 2 son, Toshkent,
2. Xudoyorova, G. I. (2024). View of INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. International Journal of Pedagogical Research, 4(2). Retrieved from <https://interoncof.com/index.php/spain/article/view/6011/5440>
3. Bozorova, M. T. (2023). KASBGA YO'NALTIRILGAN MULOQOT KO'NIKMALARINING MAZMUN-MOHİYATI. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/isrc/article/view/1256/1094>